

“TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDA YUSUF ALAYHISSALOM QISSASI TAVSIFI

Muratova Aziza Kamilovna

*Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature Uzbekistan
azizamuratova3141@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida Yusuf alayhissalom timsolining ta'rif-tavsifi, qay yo'sinda gavdalantirilishi, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan Yusuf qissasining aks etishi, voqealar tizimida g'oyaviy yo'nalishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: obraz, timsol, Yusuf, Ya'qub, qissa, payg'ambar, tush.

Аннотация: В данной статье дано определение и описание образа Юсуфа алейхиссалам в творчестве Алишера Навои, в каком виде он воплощен, отражение истории Юсуфа в произведении «Тарихи анбио ва хукамо» и его идейная направленность в описана система событий.

Ключевые слова: образ, символ, Иосиф, Иаков, рассказ, пророк, сон.

Annotation: In this article, the definition and description of the image of Yusuf alayhissalam in the works of Alisher Navoi, in which way it is embodied, the reflection of the story of Yusuf in the work “Tarixi anbio va hukamo” and its ideological direction in the system of events are described.

Key words: image, symbol, Joseph, Jacob, story, prophet, dream.

Alisher Navoiyning bizga qoldirgan adabiy xazinasini beqiyosdir. Jumladan, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida anbiyolar, avliyolar va donishmandlar tarixiga murojaat qiladi. Bu asar ikki qismdan iborat: “Tarixi anbiyo” (payg'ambarlar tarixiga) va “Tarixi hukamo” (hakimlar, donishmandlar tarixi). Kitobda Odam atodan boshlab, 59 nafar payg'ambar valiy, 4 nafar obid va 13 nafar olim haqida ma'lumotlar berilgan. Payg'ambarlar bilan bog'liq qissalar Qur'oni karim oyatlari bilan izohlangan.

Asarda Alisher Navoiy anbiyolarni to'rt guruhga ajratadi: mursal (vahiy kelgan Idris, Yofas, Som, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Xizr, Yunus), g'ayri mursal, ulul-azm payg'ambarlar (Muso, Iso binni Maryam, Ibrohim) va eng so'nggi xotam payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dir. Qur'oni karimda so'nggi payg'ambarning eng og'ir kunlarida “Yusuf” surasi nozil qilingani haqida ma'lumotlar bor. Bu bejiz emas, albatta. Yusuf alayhissalom musulmon Sharq adabiyotida go'zallik, ayriliq, matonat, oqibat ramzi sifatida madh etiladi.

“Tarixi anbiyo va hukamo”da Yusuf a.s. siymosini ta’rif va tavsifiga keng o’rin ajratilgan. Eng mashhur “Yusuf va Zulayho” sayyor sujeti muqaddas kitoblar Tavrot, Injil, Qur’oni karimda uchraydi. “Eng go’zal qissa” deya ta’rif berilgan “Yusuf” surasi Qur’oni karimning 12-surasi bo’lib, u 111 oyatdan iborat. “U Payg’ambarimiz Muhammad s.a.v.ning boshiga musibat tushganida, tog’asi Abu Tolib hamda zavjasi Xadicha vafot etgan kunlarida Makkada nozil bo’lgan. Yusuf a.s.ning mushkul taqdiri va uning qiyinchiliklarni sabr bilan yenggani haqidagi voqealar Payg’ambarimiz Muhammad s.a.v.ga ma’lum qilingan”¹. Ushbu surani musibatga duch kelganlar eshitsa, qalbi taskin topishi haqida so’z yuritiladi.

Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bu qissaning g’aroyibli, qiziqarliligi, shoir-u ijodkorlarni o’ziga rom qilganligini, ular Yusuf haqida go’zal asarlar, betakror baytlar bitganligini e’tirof qiladi. Hatto bu qissaning Ya’qub a.s. haqidagi qissadan mashhur ekanligini yozadi: “Yusuf alayhissalom qissasi andin mashhurroqdurkim, ehtiyoj aning tafsilina bo’lgay, nevhunki g’arobat va shirinligi uchun akobir ham nazm va ham nasr aning sharhi asbobin tuzubdurlar va bayonida sehrlar ko’rguzubdurlar”². Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Yusuf a.s. haqida o’zidan oldin asarlar bitgan adiblarni sanab o’tadi: “Ul jumladin biri Firdavsiy Tusiy va yana biri hazrat maxdumi Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiykim, andoqkim Yusuf a.s.ning husni va jamoli ta’rifdin mustag’niydur. Yana xoja Ma’sud Iroqiy ham nazm qilibdur va balog’atning dodin beribdur”³. Bu iqtibosdan bilish mumkinki, Yusuf alayhissalom mavzusi Sharqda g’oyat mashhur va marg’ubdir. Buning isboti sifatida hazrat Navoiy o’z zamonasining eng ilg’or ijodkorlarining Yusuf alayhissalom haqida asarlari mavjudligini keltirib o’tgan.

Adib asarida Yusuf(a.s.) qissasi mazmunini keltirib, so’zining boshida bu qissani turkiy tilda nazm shaklida bayon etish rejasi borligini qayd qilgan: “...Komi xotirg’a bu orzuni kechururkim, inshaalloh, umr omon bersa, turk tili bila-o’q kofurgun varaq uzra xomayi mushkin shamomani surgay. Va bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosig’a yetkurgay

“Haq bu tavfiqni nasib etgay,

Yo nasib ulcha tangridin yetgay”

Asarni adib Yusufning ta’rifi bilan boshlaydi, uning odamzot ichida eng go’zali ekanligini aytadi. Yusuf a.s.ning go’zalligi shu qadar ediki, go’zallikning yuz qismdan to’qson to’qqiz ulushi Alloh taolo tomonidan unga berilgan edi. “Yusuf a.s bani odam jinsining jamilrog’idir. Bir kun o’z yuzin ko’zguda ko’rub andoqki husn istig’noyu g’ururga muqtazodur ko’ngliga kechtikim oyo agar men qul bo’lsam erdi mening bahomni kim bera olg’ay erdi”⁴. Bu o’rinda adib Yusuf a.s.ning g’ururga, kibrga berilishi sabab Alloh

Taolo unga sinov berganiga urg'u berib, kibrnining insonga zarar keltirishiga dalil ko'rsatib ketadi. U o'zining go'zalligiga mahliyo bo'lib agar qul bo'lsam meni sotsalar bahoyimni kim bera olardi deya kibrlanadi. Oqibatda u tush ko'radi. "Yusuf a.s. tush ko'rub erdikim gunashu oy va o'n bir kavkab anga sajda qildilar"⁵. Bu tushni otasiga aytganida otasi bu tushni hech kimga aytmaslikni so'raydi chunki tushning ta'biri Yusufning ota-onasi, aka-ukalari undan ayrilib, intizor bo'lishini anglatardi.

"Qur'oni karimda Ya'qubning Yusufga mehr-muhabbati boshqa o'g'illaridan ko'ra ortiq bo'lishi adovatni paydo qiladi. "Tarixi anbiyo va hukamo"da esa Ya'qub Yusuf a.s.ning ko'rgan tushini, ya'ni oy va quyosh, o'n bir yulduzning Yusufga sajda qilganini "ota-yu onang va qardoshlaring senga muhtoj bo'lg'aylar", deb ta'bir qiladi.

Yusuf a.s. zindonda paytida Alloh Taolo unga tush ta'bir qilish qobiliyatini beradi. U tush ta'biri orqali xalqni qahatchilik, ocharchilik balosidan saqlaydi. Zulayhoni ta'na qilishganida Misr ayollarini bir xonaga to'plab qo'llariga meva va pichoq beradi. Xonaga Yusufni chorlaydi shunda uning go'zalligidan hushlari o'zlaridan ketgan hamma ayollar meva o'rniga qo'llarini kesib qo'yadilar va Zulayhoning unga oshiq bo'lishi sababini anglaydilar. Bu tasvir orqali Yusuf a.s. go'zalligi insonni naqadar o'ziga rom qilib qo'yishi ko'rsatilgan.

"Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Navoiy Yusuf qissasi asosida turkiy tilda doston yozishni niyat qilgan va Qur'on oyatlariga, xalq og'zaki ijodiga va o'zidan oldin yaratilgan "Qissai anbiyo"lar, "Yusuf va Zulayho" sujetidagi asarlarga tayangan. G'azaliyotida ham Yusuf a.s. siymosi orqali go'zal tashbehtar, talmehlar, ko'chimlar yarata olgan. Yusuf alayhissalom siymosi Alisher Navoiy ijodida yuksak fenomen obrazlardan biri bo'lganini uning mazkur tarixiy-ma'rifiy asari hamda ulkan lirik merosi orqali ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. (2000). Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 16 j. Tarixi anbiyo va hukamo. Fan.
2. Qur'oni karim. (1992). Cho'lpon.
3. D.Abdullayeva. Alisher Navoiy ijodida "Yusuf va Zulayho" mavzusi. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari xalqaro konferensiya. (8-fevral, 2023).